QADIMGI XITOY TILIDA TA’LIM SHIORLARIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI (清 SIN SULOLASI MATERIALLARI ASOSIDA)

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-78-79

G‘iyosov Bobur Ulug‘bek o‘g‘li,
v.b. dotsent, PhD,
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi
giyasovbobur@gmail.com

SEMANTIC AND SYNTACTIC FEATURES OF LEXICAL UNITS IN EDUCATIONAL SLOGANS IN CLASSICAL CHINESE (BASED ON MATERIALS FROM THE QING DYNASTY)

G‘iyosov Bobur Ulug‘bek o‘g‘li
PhD, Acting Associate Professor
Department of Translation Theory and Practice
Kimyo International University in Tashkent
E-mail: giyasovbobur@gmail.com

Annotation: *This study examines the semantic and syntactic features of educational expressions associated with the Qin dynasty, focusing on 以吏为师, 以法为教, 统一文字, and 博士为官学之师. The analysis reveals their lexical meanings, grammatical structures, historical semantic changes, and close connection between education, law, writing, and state centralization.*

Keywords: *Classical Chinese, Qin dynasty, educational vocabulary, semantics, syntax, 以吏为师, 以法为教, 统一文字, 博士, 官学.*

Sin sulolasi davriga oid ta’limga aloqador til birliklari qadimgi xitoy tilining semantik zichligi, sintaktik ixchamligi hamda ta’lim va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi uzviy munosabatni aks ettiradi. Mazkur tadqiqotda 以吏为师, 以法为教, 统一文字 va 博士为官学之师 birliklarining leksik-semantik hamda sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik-semantik, sintaktik, kontekstual va tarixiy-qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

以吏为师 [yǐ lì wéi shī] birligi 以+O+为+C modeli asosida tuzilgan bo‘lib, unda 吏 “amaldor”, 师 esa “ustoz” ma’nosini bildiradi. Konstruksiya “amaldorni ustoz deb bilish” mazmunini ifodalab, ta’lim va davlat xizmati o‘rtasidagi semantik aloqani ko‘rsatadi [G‘iyosov 2024:93]. 以法为教 [yǐ fǎ wéi jiào] birligi ham ayni 以……为…… konstruksiyasiga asoslangan. Unda 法 “qonun”, 教 esa “ta’lim” ma’nosida qo‘llanib, ta’lim mazmunining davlat qonunlari bilan bog‘langanligini ifodalaydi [G‘iyosov 2024:94]. Mazkur ikki birlikning parallel sintaktik qurilishi qadimgi xitoy tiliga xos ixchamlik va semantik zichlikni namoyon etadi.

统一文字 [tǒngyī wénzì] esa fe’l+obyekt modelida shakllangan: 统一 — “birlashtirmoq, standartlashtirmoq”, 文字 — “yozuv tizimi”. Ushbu birlik Sin davridagi yozuvni standartlashtirish siyosatini ifodalab, til, savodxonlik va davlat markazlashuvi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi [G‘iyosov 2024:95].

博士为官学之师 [bóshì wéi guānxué zhī shī] konstruksiyasida 官学之师 “davlat ta’limining ustozi” ma’nosini anglatadi. Bu yerda 之 aniqlovchi munosabatni ifodalovchi

grammatik ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, 博士 leksemasining tarixiy semantik rivoji alohida ahamiyatga ega: qadimgi xitoy tilida u bilimdon amaldor yoki saroy olimini bildirgan bo‘lsa, zamonaviy xitoy tilida “doktor, PhD” ma’nosini anglatadi [G‘iyosov 2024:96].

Tahlil natijalari Sin davriga oid ta’lim leksikasida “amaldor”, “ustoz”, “qonun”, “ta’lim”, “bilim”, “yozuv” va “davlat” tushunchalari o‘zaro semantik jihatdan bog‘langanligini ko‘rsatdi. Demak, mazkur birliklar nafaqat qadimgi xitoy tilining grammatik va leksik xususiyatlarini, balki Sin davrida ta’limning davlat boshqaruvi, qonun va markazlashtirish siyosati bilan uzviy bog‘langanligini ham aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘iyosov B.U. Xitoy ta’lim shiorlarining leksik-uslubiy xususiyatlari. // Sharqshunoslik. – No3. – Toshkent: TDShU, 2022. – B. 88–93.